

MUMTOZ MAHAL - SAROYNING DURDONASI

*Bashirqulova Sevinch Oybek qizi**Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiylar sulolasining hukmdorlaridan bo‘lgan Shohjahonning sevimli va sadoqatli malikasi bo‘lgan Mumtoz Mahal haqida so‘z boradi. Ushbu malikaning hukmdor Shoh Jahon uchun qay darajada qadrli ekanligi uning davrida Jamna daryosi bo‘yida qurdirilgan Toj Mahal inshootidan ham ko‘rishimiz mumkin. Mumtoz Mahal begim haqidagi ma‘lumotlar mavjud manba va adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Hindiston zamini, Shoh Jahon va Arjumand bonu, Agra, “saroyning ko‘rki”, Akbarshoh, sevgi va sadoqat ramzi - Toj Mahal, Jahongirshoh, Nurjahon, shon- shuhrat, vafodor yor va sodiq hamroh.

Hindiston tarixida chuqur iz qoldirgan ayollardan biri Mumtoz Mahal bo‘lib, u Boburiylar davlati hukmdori Shoh Jahonning suyuqli rafiqasi sifatida tanilgan. Mumtoz Mahal boshlab asl ismi Arjumand Banu Begim bo‘lgan. U 1593-yil 27-oktabrda Eronning Mashhad shahrida tug‘ilgan. Otasi Abdulhasan Asafxon Boburiy saroyida yuqori lavozimli amaldor bo‘lib xizmat qilgan, onasi esa Akbarshohning bosh vaziri Bozorugning qizi edi. Shu bois, Arjumand Banu Hindiston saroy muhitida ulg‘aygan[5].

Arjumand Banu 1607-yilda imperator Akbarshohning nabirasi Shahzoda Xurram (keyinchalik Shoh Jahon) bilan unashtirilgan. 1612-yil 10-may kuni ular nikohdan o‘tishdi. Nikohdan so‘ng, Shoh Jahon unga “Mumtoz Mahal” ya’ni “Saroyning durdonasi” unvonini berdi. Shoh Jahonning rasmiy rafiqalari ko‘p bo‘lgan bo‘lsa-da, u faqat Mumtoz Mahalga chin dildan muhabbat qo‘ygan va har doim u bilan bo‘lgan. Mumtoz Mahal juda go‘zal, aqlli va mehribon ayol sifatida tanilgan. U faqatgina Shoh Jahonning rafiqasi emas, balki eng ishonchli maslahatchilaridan biri ham bo‘lgan. Shoh Jahon unga cheksiz muhabbat bilan bog‘langan va ko‘p hollarda davlat ishlarida ham u bilan maslahatlashgan. Ular o‘rtasidagi muhabbat tarixda misli ko‘rilmagan sadoqat timsoliga aylangan [4, 132-134-b.].

Mumtoz Mahal Shoh Jahonga 14 farzand tug‘ib bergan, ulardan faqat 7 nafari hayotda qolgan. Ularning eng mashhuri – Avrangzeb, keyinchalik Boburiylar saltanatining eng qudratli hukmdoriga aylangan. 1631-yil 17-iyun kuni, Dakan yurishi paytida Burhonpur shahrida 14-farzandini tug‘ayotganida, u og‘ir sharoitlar tufayli 38 yoshida vafot etdi. Mumtoz Mahal vafoti Shoh Jahonni chuqur qayg‘uga soldi. U bir necha kun davomida hech kim bilan gaplashmadi, barcha tantanalarni to‘xtatdi, va hatto soqolini oldirmay yurdi. Mumtoz Mahal avval Burhonpurda dafn qilindi, keyin

esa jasadi Agraga olib kelinib, abadiy oromgohga ya'ni Toj Mahal maqbarasiga ko'chirildi.

Tabiiyki, bunday ezgu xizmatlari evaziga har ikki tomonning iltifotiga sazovor bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'p o'tmay saroyda Arjumand bonu — Mumtoz Mahal begim (saroyning ko'rki) deya atala boshlandi. Arjumand bonuga berilgan ushbu nom unga shon-shuhrat keltirib jahonga mashhur qildi va nomi tarix sahifalariga ko'chdi. 1628-yil fevralida eri Shoh Jahon taxtga o'tirgach, yosh malika Mumtoz Mahal begim saltanat ishlarida unga yordamlashib, rejalik maslahatlari bilan hukmdorni to'g'ri yo'lga boshladi. Saroyda u maslahatchi va muhrdorlik lavozimida edi[6].

Mumtoz Mahal begim yaxshi kunlarda ham, og'ir damlarda ham, harbiy safarlarda ham eriga vafodor yor, sodiq hamroh va jafokash hamdard bo'ldi. U qisqa umri davomida o'n to'rt nafar farzand ko'rdi. «Tazkirat ul-xavotin» asarida yozilishicha, Mumtoz Mahal begimning dunyoda qoldirgan farzandlari sakkiz nafar - to'rt qiz, to'rt o'g'il bo'lib, qolgan olti nafari yoshligida nobud bo'lgan[4].

Mumtoz Mahal begim hayot bilan vidolasharkan, eri Shoh Jahondan farzandlariga mehribon bo'lishni, bundan buyon boshqa uylanmaslikni va nihoyat, unga atab, dunyoda tengi yo'q ulug'vor, hashamatli maqbara bunyod ettirishni iltimos qildi. Mumtoz Mahal begim o'lim oldidan o'z bolalari bilan vidolasharkan, Shoh Jahonning ahvolidan xabardor bo'lib, unga g'amxo'rlik qilib turishni o'zining katta qizi— Jahon Oro begim zimmasiga yuklaydi. [1, 64-b]. Toj Mahal – Abadiy muhabbat yodgorligi. Mumtoz Mahal vafot etganidan so'ng, Shoh Jahon uning xotirasi uchun jahonga mashhur bo'lgan Toj Mahal maqbarasini qurdirgan. U Agra shahrida joylashgan bo'lib, bugungi kunda ham butun dunyo sayyohlarini o'ziga jalb etadi.

Toj Mahal nafaqat me'morchilik durdonasi, balki insoniy muhabbat va sadoqatning timsoli sifatida ham qadrlanadi. Shoh Jahon hukmronligi davrida bunyod etilgan me'moriy obidalarining eng noyob namunasi dunyoning yetti mo'jzasidan biri hisoblangan- Toj Mahal maqbarasidir. Bu bino shohning sevimli malikasi va vafodor xotini Mumtoz Mahal begim vafotidan so'ng, uning xotirasiga bag'ishlab Jamna daryosi bo'yida qurilgan yodgorlik bo'lib, bu obida sof muhabbat va sadoqat ramzi sifatida butun jahon ahlini hozirgacha hayratga solib keladi[2, 41-b.].

Shoh Jahon sevikli rafiqasi Mumtoz Mahal begimning vasiyatlariga to'la amal qiladi. Zotan, u keyingi 36 yillik umri davomida uylanmay o'tadi. Munis va vafodor rafiqasining nomini abadiylashtirish maqsadida, unga atab yaltiroq oq marmardan hashamatli maqbara qurdiradi. Agra shahridagi ulkan maqbaraning qurilishiga yigirma ming mutaxassis usta va ishchilar jalb qilinib, qurib bitkazildi. Bu ulug'vor obida — «sevgi va vafo» qasrining qurilishiga 40 million rupiya mablag' sarflangan.

Maqbara qurib bitkazilgach, marhuma Mumtoz Mahal begimning xokini ko'chirib keltirib dafn etishdi. Ushbu ulug'vor hashamatli maqbarani Mumtoz Mahal

begim boshiga kiydirilgan toj ramzida «Toj Mahal» deb atadilar [1,64-65-b]. Shoh Jahon Mumtoz Mahal xotirasi uchun Toj Mahal maqbarasini qurdirishga qaror qildi. Qurilish 1632-yilda boshlangan va taxminan 22 yil davom etgan (1653-yilgacha). Qurilishda 20 mingdan ortiq ishchi, ustalar, arxitektorlar va san'atkorlar qatnashgan. Marmar, qimmatbaho toshlar, kaligrafiya, naqsh va me'moriy uyg'unlik tufayli Toj Mahal dunyo me'morchiligining durdonasiga aylandi.

Toj Mahal nafaqat hind islom me'morchiligi, balki hind, fors, turk va arab uslublarining uyg'unlashuvi mahsulidir. Bugungi kunda u YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va har yili millionlab sayyohlar tashrif buyuradi[3, 86-89-b.].

Xulosa o'rnida aytilish mumkinki, Mumtoz Mahal begim Boburiy malikalardan bo'lib, Shoh Jahonning suyuqli rafiqasi edi. U asli eronlik bo'lib bobosi va ota-onasi Hindistonga ko'chib kelib, Akbarshoh xizmatiga kirgan va shu tariqa bu yerdagi faoliyat boshlangan. Arjumand bonu tez kunda tadbirkorligi, nozik tabiati, iffati, tengsiz husn-latofati, ayrim kelishmovchiliklarni oson hal qilishi bilan saroy a'yonlari o'rtasida katta e'tibor qozonadi. Shuning uchun ko'p o'tmay u Mumtoz mahal begim-saroyning ko'rki deya atala boshlandi. Sof sevgi namunasi sifatida Shoh Jahon Mumtoz mahal begimga atab Agradada Tojmahalni bunyod ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayziyev T. "Temuriy malikalar". Toshkent. 1996.
2. Sotimov G. "Buburiyzodalar" Toshkent. 2003.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-jild. Toshkent. 2000.
4. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. Darslik. Toshkent. 2004.
5. www.archive.org. ineternet sayti
6. www.wikipedia.org. ineternet sayti